

KASBIY STANDART

Maishiy texnika jihozlariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash

Reyestr raqami:

QR kod

I. Umumiy ma'lumotlar

1. Kasbiy standartning qo'llanilish sohasi: Ushbu Kasbiy standart tegishli "Konditsiyalash va shamollatish sistemasini ta'mirlash va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar", "Sovutish qurilmalarini ta'mirlash bo'yicha chilangar", "Maishiy elektr jihozlarini ta'mirlovchi elektromexanik", "Sovutish qurilmasi mashinisti" va "Rekuperatorlar va sovitish tizimlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha apparatchi" kasblar uchun ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda, kasbiy malakalarni mustaqil baholashda, shuningdek, tashkilotlarda xodimlarni boshqarish sohasida keng ko'lamli masalalarni hal qilishda qo'llaniladi.

2. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi asosiy tushunchalar va atamalar qo'llaniladi:

bilim – kasbiy faoliyat doirasidagi vazifalarni bajarish uchun zarur bo'ladigan, o'rganilgan va o'zlashtirilgan ma'lumotlar;

DACUM – korxonaning tajribali xodimlaridan iborat ekspert guruhlarida tuzilgan guruh muhokamalarini o'tkazish usuli;

informal ta'lim – aniq maqsadga yo'naltirilgan, ammo institutsionallashtirilmagan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtirmagan), rasmiy yoki norasmiy ta'limdan ko'ra kamroq tashkillashtirilgan va tarkiblashtirilgan hamda oiladagi, ish joyidagi, yashash joyidagi va kundalik hayotdagi o'quv faoliyatini o'z ichiga olgan ta'lim shakli;

kasb – ko'nikma va bilimlarni talab qiladigan muayyan funksiyalar va vazifalarni bajarish bilan bog'liq bo'lgan faoliyat turi;

kasb xaritasi – kasb nomi, mehnat funksiyalari tavsifi, kasbga qo'yiladigan asosiy xususiyatlar va talablarni o'z ichiga olgan muayyan kasb to'g'risidagi tizimlashtirilgan ma'lumotlarni o'z ichiga olgan kasbiy standartning tarkibiy elementi;

kasbiy standartlar reyestri – bu kasbiy standartlarning nomi, qamrab olingan kasblar, uni qabul qilishga oid qaror (buyruq) rekvizitlari hamda amal qilish muddatini o'z ichiga olgan tizimlashtirilgan ro'yxat;

ko'nikma – mehnat vazifasi doirasida alohida yoki yakka harakatlarni jismoniy va aqliy jihatdan bajarish;

mehnat funksiyasi – kasbiy faoliyat doirasida xodim tomonidan belgilangan natijaga erishish uchun amalga oshiriladigan mehnat vazifalari majmui;

mehnat harakatlari – xodimning mehnat predmeti bilan o‘zaro ta‘sirida muayyan mehnat natijasiga erishiladigan jarayon;

mehnat vazifasi – mehnat funksiyasi doirasida xodimga yuklanadigan (topshiriladigan) ishning aniq turi;

norasmiy ta‘lim – ta‘lim xizmatlari taqdim etilishini ta‘minlovchi shaxs yoki tashkilot tomonidan institutsionallashtirilgan (muayyan qoidalar va normalarni mujassamlashtiruvchi), aniq maqsadga yo‘naltirilgan va rejalashtirilgan, shaxsni butun hayoti davomida o‘qitishdagi rasmiy ta‘limga qo‘shimcha va (yoki) uning muqobil shakli.

3. Kasbiy standartni ishlab chiqishga asos bo‘lgan normativ-huquqiy hujjatlar:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga jismoniy shaxslar nomiga xalqaro pochta va kuryerlik jo‘natmalari orqali kelayotgan tovarlar nazoratini ta‘minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3873-son Qarori;

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 30-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi milliy malaka tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-345-son Qarori.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016-yil 24-avgustdagi “Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 275-son Qarori (IFUT-2.1);

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 2-apreldagi “Maishiy texnika mahsulotlarini majburiy raqamli markirovkalash tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi 148-son Qarori.

4. Ushbu Kasbiy standartda quyidagi qisqartirishlar qo‘llaniladi:

MMR – Milliy malaka ramkasi;

TMR – Tarmoq malaka ramkasi;

IFUT – O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlarining umumdavlat tasniflagichi;

MMK – Mashg‘ulotlarning milliy klassifikatori.

II. Kasbiy standartning pasporti

1.	Kasbiy standartning nomi:	Maishiy texnika jihozlariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash	
2.	Faoliyatning asosiy maqsadi:	Maishiy texnika jihozlarini xavfsiz va uzluksiz ishlashini ta'minlash, ularning nosozliklarini aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, texnik profilaktika, diagnostika va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish	
3.	IFUT bo'yicha seksiya, bo'lim, guruh, sinf va kichik sinf:	T seksiyasi Boshqa turdagi xizmatlar ko'rsatish; 95 Kompyuterlarni, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni hamda motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish; 95.2 Shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish; 95.21 Maishiy elektronika jihozlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish; 95.21.0 Maishiy elektronika jihozlarini ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish; 95.29 Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish; 95.29.0 Boshqa toifalarga kiritilmagan shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish.	
4.	Kasbiy standartning qisqacha mazmuni:	Maishiy texnika jihozlariga xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha kasbiy faoliyat yurituvchi mutaxassislarning kasbiy malakasini baholash va rivojlantirish uchun zarur bo'lgan yagona malaka talablarini belgilash hamda xizmat ko'rsatish sifatini oshirish.	
5.	Qamrab olingan kasblar ro'yxati va malaka darajasi:	Kasblar kodi va nomi:	TMR dagi malaka darajasi:
		71270003 Konditsiyalash va shamollatish sistemasini ta'mirlash va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar	3
		71270007 Sovutish qurilmalarini ta'mirlash bo'yicha chilangar	3
		74123001 Maishiy elektr jihozlarini ta'mirlovchi elektromexanik	3
		81890042 Rekuperatorlar va sovitish tizimlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha apparatchi	4
		81890047 Sovutish qurilmasi mashinisti	4

III. Kasbiy faoliyat turining funksional xaritasi

Kasblar		Mehnat funksiyalari		Mehnat vazifalari	
T/r	Kodi va nomi	Kodi	Nomi	Kodi	Nomi
1.	71270003 Konditsiyalash va shamollatish sistemasini ta'mirlash va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar	A1.3	Konditsiyalash va shamollatish sistemalarini ta'mirlash va sozlash ishlarini bajarish	A1.01.3	Konditsiyalash va shamollatish tizimlarining ish faoliyatini tekshirish, o'lchov asboblari orqali parametrlarni baholash, nosozliklarni aniqlash va ta'mirga tayyorgarlik ko'rish
				A1.02.3	Konditsiyalash va shamollatish tizimlarining nosoz yoki eskirgan qismlarni demontaj qilish, zarur ehtiyot qismlarni o'rnatish, mexanik va texnologik ta'mirlash ishlarini bajarish, yig'ish va mahkamlash ishlarini amalga oshirish
				A1.03.3	Konditsiyalash va shamollatish tizimlarini yig'ib, ishga tushirish, ishlash parametrlarini sozlash, barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash, yakuniy nazorat va sinov ishlarini bajarish
		A2.3	Konditsiyalash va shamollatish sistemalariga texnik xizmat ko'rsatish va xavfsizlikni ta'minlash	A2.01.3	Konditsiyalash va shamollatish tizimlarining ish faoliyatini doimiy kuzatish, rejalashtirilgan ko'riklar o'tkazish, tozalash, moylash, filtr va mayda ehtiyot qismlarni almashtirish orqali nosozliklarning oldini olish
				A2.02.3	Konditsiyalash va shamollatish tizimlaridagi harorat, bosim, havo oqimi kabi parametrlarni sozlash va tekshirish, ventilyatsiya va sovitish tizimlarini muvozanatlashtirish, ish rejimiga mos ravishda sozlash
				A2.03.3	Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, xavfli holatlarning oldini olish bo'yicha choralar ko'rish, bajarilgan ishlar bo'yicha hisobot va texnik hujjatlarni yuritish
2.	71270007 Sovutish qurilmalarini ta'mirlash bo'yicha chilangar	B1.3	Sovutish qurilmalarining diagnostikasi va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish	B1.01.3	Sovutish qurilmalarining ishlash holatini kuzatish, texnik vositalar yordamida diagnostika o'tkazish, nosozlik belgilarini aniqlash va ularning sabablarini tahlil qilish orqali qurilmaning umumiy texnik holatini baholash
				B1.02.3	Aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish, kerakli ehtiyot qismlarni almashtirish yoki ta'mirlash, tizimni yig'ish va sozlash, ishga

					tushirishdan oldin sinovdan o'tkazish hamda bajarilgan ishlarni texnik hujjatlar asosida rasmiylashtirish
		B2.3	Sovutish tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish, ularni sozlash va ekspluatatsiya xavfsizligini ta'minlash faoliyati	B2.01.3	Sovutish tizimlarining doimiy ishlashini ta'minlash maqsadida ularni tozalash, yog'lash, tekshirish va zarur sozlash ishlarini amalga oshirish, eskirgan yoki nosoz qismlarni aniqlash va ularni almashtirish, ishga tayyorlash va sinovdan o'tkazish
				B2.02.3	Sovutish tizimlarining xavfsiz ishlashiga doir texnika xavfsizligi va sanitariya-gigiyena talablariga rioya etish, favqulodda holatlarning oldini olish choralarini ko'rish, himoya vositalaridan foydalanish va xavfsizlik bo'yicha nazorat ishlarini olib borish
3.	74123001 Maishiy elektr jihozlarini ta'mirlovchi elektromexanik	D1.3	Elektr jihozlarini diagnostika qilish va nosozliklarni aniqlash	D1.01.3	Maishiy elektr jihozlarining elektr va mexanik qismlarini tekshirish
				D1.02.3	Nosozlik sabablarini aniqlash uchun o'lchov asboblari va testerlar bilan diagnostika o'tkazish
				D1.03.3	Qurilma sxemalarini tahlil qilib, muammoli joylarni aniqlash
		D2.3	Elektr jihozlarini ta'mirlash va sozlash	D2.01.3	Aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish, zarur qismlarni almashtirish yoki lehimlash
				D2.02.3	Har xil turdagi elektr dvigatellari, transformatorlar, o'tkazgichlar, kontakt va ulagichlarni tiklash
				D2.03.3	Jihozning ishga yaroqliligini sinovdan o'tkazish va sozlash ishlarini bajarish
		D3.3	Texnik xizmat ko'rsatish va xavfsizlikni ta'minlash	D3.01.3	Jihozlarni tozalash, moylash, kuchlanish va izolyatsiya holatini tekshirib turish
				D3.02.3	Ish joyida elektr xavfsizligi va yong'in xavfsizligi qoidalariga rioya etish
				D3.03.3	Texnik xizmat ko'rsatish jurnallarini yuritish va bajarilgan ishlar bo'yicha hisobot tayyorlash
5.	81890042 Rekuperatorlar va sovitish tizimlariga	E1.4	Rekuperatorlar va sovitish tizimlari jarayonlarini boshqarish va nazorat qilish	E1.01.4	Tizimlarni ishga tayyorlash, ishga tushirish va to'xtatish
				E1.02.4	Jarayon parametrlarini monitoring qilish
				E1.03.4	Issiqlik va sovitish jarayonlarini boshqarish
				E1.04.4	Diagnostika va nosozliklarni aniqlash, baolash, namunalar olish

	xizmat ko'rsatish bo'yicha apparatchi	E2.4	Rekuperatorlar va sovitish tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish va xavfsizlikni ta'minlash	E2.01.4	Tizimlarda ta'mir ishlarini bajarish, tozalash va texnik xizmat ko'rsatish
				E2.02.4	Mehnat muxofazasi va ekologik xavfsizlik talablariga rioya qilish, texnik xujjatlarni yuritish
4.	81890047 Sovutish qurilmasi mashinisti	F1.4	Sovutish qurilmalari ishini boshqarish va nazorat qilish	F1.01.4	Sovutish qurilmalarini ishga tushirish, ularning ishlash jarayonini boshqarish, harorat va bosim kabi ish parametrlarini doimiy kuzatib borish, ishlash tartibiga rioya qilish, avariya holatlarning oldini olish va qurilmalarni belgilangan rejimda to'xtatish
		F2.4	Texnik xizmat ko'rsatish va profilaktik ta'mirlash ishlarini bajarish	F2.01.4	Qurilmalarning texnik holatini baholash, rejalashtirilgan texnik xizmat ko'rsatish ishlarini amalga oshirish, kichik ta'mirlash, tozalash, moylash, ehtiyot qismlarni almashtirish hamda xavfsizlik va texnik ekspluatatsiya qoidalariga qat'iy rioya qilish

IV. Kasblar xaritasi va mehnat funksiyalari tavsifi

Kasbning nomi:	Konditsiyalash va shamollatish sistemasini ta'mirlash va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar
Mashg'ulot nomining kodi:	71270
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji) ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	- Ishga qabul qilinishi uchun nomzod kamida 18 yoshga to'lgan, jinsiga qarab (ayol/erkak) kasb faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim; - Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; - Jismonan sog'lom va stressga chidamli bo'lishi kerak, uzoq vaqt ishlash qobiliyatiga ega bo'lish; - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevish, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish - Ko'nikmalarlariga ega bo'lish; - Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; - Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	o'rta maxsus ta'lim

	umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba	
Kasbiy standartlar reestrida mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	3-5 razryadli Konditsiyalash va shamollatish sistemasini ta'mirlash va unga xizmat ko'rsatish bo'yicha chilangar	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Sovutish qurilmasi mashinisti
	5	Elektrotexnik qurilmalar bo'yicha texnik
	3	Sovutish qurilmalarini ta'mirlash bo'yicha chilangar
Mehnat funksiyalarining tavsifi		
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari	
A1.3- Konditsiyalash va shamollatish sistemalarini ta'mirlash va sozlash ishlarini bajarish	A1.01.3- Konditsiyalash va shamollatish tizimlarining ish faoliyatini tekshirish, o'lchov asboblari orqali parametrlarni baholash, nosozliklarni aniqlash va ta'mirga tayyorgarlik ko'rish	O'qitish natijalari
		Mehnat harakatlari:
		1. Konditsiyalash va shamollatish tizimlarini vizual tekshirish
		2. O'lchov asboblari yordamida harorat, bosim va havo oqimi parametrlarini aniqlash
		3. Nosozlik belgilarini aniqlash va qayd etish
		4. Ta'mir ishlari uchun tizimni tayyorlash va o'chirish
		5. Ish jarayonini optimallashtirish va sozlash uchun zarur chora-tadbirlarni belgilash
		Ko'nikmalar:
		O'lchov asboblari yordamida tizim parametrlarini aniqlash va baholash
		Nosozliklarni tezkor aniqlash va tasniflash
		Ta'mirga tayyorgarlik ishlarini tashkil etish
		Ish jarayonini kuzatish va diagnostika natijalarini tahlil qilish
		Oddiy sozlash va reaktiv choralarni qo'llash
		Bilimlar:
		Konditsiyalash va shamollatish tizimlari tuzilishi va ishlash prinsiplari
		O'lchov asboblari va ularning ishlash usullari
		Nosozlik belgilarini aniqlash va ularni tasniflash yo'llari
		Ta'mirga tayyorgarlik ishlari tartibi va jarayoni
		Diagnostika natijalarini tahlil qilish va qaror qabul qilish tamoyillari
		Mehnat harakatlari:
		1. Nosoz yoki eskirgan qismlarni aniqlash va demontaj qilish

	A1.02.3- Konditsiyalash va shamollatish tizimlarining nosoz yoki eskirgan qismlarni demontaj qilish, zarur ehtiyot qismlarni o'rnatish, mexanik va texnologik ta'mirlash ishlarini bajarish, yig'ish va mahkamlash ishlarini amalga oshirish.	2. Zarur ehtiyot qismlarni tanlash va o'rnatish
		3. Mexanik qismlarni ta'mirlash va sozlash
		4. Texnologik ta'mirlash ishlarini bajarish
		5. Tizim qismlarini yig'ish va mahkamlash
		6. Ta'mir qilingan qismlarning ish faoliyatini tekshirish
		Ko'nikmalar:
		Nosoz yoki eskirgan qismlarni aniqlash va demontaj qilish
		Ehtiyot qismlarni tanlash va o'rnatish
		Mexanik va texnologik ta'mirlash ishlarini bajarish
		Tizim qismlarini yig'ish va mahkamlash
		Ta'mir qilingan qismlarning ish faoliyatini tekshirish
		Bilimlar:
		Konditsiyalash va shamollatish tizimlari komponentlari va ularning ishlash prinsiplari
		Mexanik va texnologik ta'mirlash usullari
		Demontaj va yig'ish tartibi
	A1.03.3- Konditsiyalash va shamollatish tizimlarini yig'ib, ishga tushirish, ishlash parametrlarini sozlash, barqarorlik va xavfsizlikni ta'minlash, yakuniy nazorat va sinov ishlarini bajarish.	Ehtiyot qismlarning turlari va ularni tanlash mezonlari
		Ta'mir qilingan qismlarning ish faoliyatini nazorat qilish tamoyillari
		Mehnat harakatlari:
		1. Tizim qismlarini yig'ish va ularni ishga tayyorlash
		2. Konditsiyalash va shamollatish tizimini ishga tushirish
		3. Ishlash parametrlarini sozlash va barqarorligini ta'minlash
		4. Xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda ishlashni nazorat qilish
		5. Yakuniy nazorat va sinov ishlarini bajarish
		Ko'nikmalar:
		Tizim qismlarini yig'ish va ishga tayyorlash
		Konditsiyalash va shamollatish tizimini ishga tushirish
		Ishlash parametrlarini sozlash va barqarorligini ta'minlash
		Xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda ishlashni nazorat qilish
		Yakuniy nazorat va sinov ishlarini bajarish
		Bilimlar:
		Konditsiyalash va shamollatish tizimlarini yig'ish va ishga tushirish tartibi
		Ishlash parametrlarini sozlash va barqarorlikni ta'minlash tamoyillari
		Xavfsizlik va mehnat muhofazasi talablari

		Yakuniy nazorat va sinov ishlarini amalga oshirish usullari
		Tizim ish faoliyatini baholash va optimizatsiya qilish asoslari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Tizim qismlarini to'g'ri yig'ish va ishga tushirish uchun javobgar
		2. Ishlash parametrlarini to'g'ri sozlash va barqarorlikni ta'minlash uchun javobgar
		3. Xavfsizlik va mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilinishini ta'minlash uchun javobgar
		4. Yakuniy nazorat va sinov ishlarining to'g'riligiga javobgar
		5. Tizimni yig'ish va ishga tushirishga mas'ul
		6. Ishlash parametrlarini sozlash va optimizatsiya qilish bo'yicha mustaqil qarorlar qabul qilishga mas'ul
		7. Xavfsizlik va mehnat muhofazasi choralarini mustaqil nazorat qilishga mas'ul
		8. Yakuniy sinov va nazorat ishlarini mustaqil amalga oshirishga javobgar
A2.3- Konditsiyalash va shamollatish sistemalariga texnik xizmat ko'rsatish va xavfsizlikni ta'minlash	A2.01.3- Konditsiyalash va shamollatish tizimlarining ish faoliyatini doimiy kuzatish, rejalashtirilgan ko'riklar o'tkazish, tozalash, moylash, filtr va mayda ehtiyot qismlarni almashtirish orqali nosozliklarning oldini olish.	Mehnat harakatlari:
		1. Tizimning ish holatini va parametrlarini tekshirish
		2. Filtr va moylash qismlarini tozalash yoki almashtirish
		3. Havoni uzatuvchi yo'llarni va kondensat tizimini tozalash
		4. Mayda ehtiyot qismlarni aniqlab, almashtirish
		5. Elektr ulanish va kontaktlarni nazorat qilish
		6. Amalga oshirilgan xizmat natijalarini qayd etish va xavfsizlikni ta'minlash
		Ko'nikmalar:
		Tizimning ish holatini aniqlash va me'yoriy ko'rsatkichlarni tahlil qilish
		Filtr, moylash va mayda qismlarni tozalash yoki almashtirish ishlarini bajarish
		Nosozlik belgilarini aniqlash va oldini olish choralarini ko'rish
		Elektr va mexanik ulanishlarni tekshirish va mustahkamlash
		Xizmat natijalarini qayd etish va xavfsizlikni ta'minlab ishlash
		Bilimlar:
		Konditsiyalash va shamollatish tizimlarining asosiy tuzilishi va ishlash prinsiplari
		Tizim parametrlarini o'lchash usullari
		Filtr, moylash va tozalash vositalarining turlari hamda ularni qo'llash tartibi

		Elektr ulanish va mexanik qismlar bilan ishlashda xavfsizlik qoidalari
		Texnik xizmat ko'rsatish jurnali va hisobotlarni yuritish tartibi
	A2.02.3- Konditsiyalash va shamollatish tizimlaridagi harorat, bosim, havo oqimi kabi parametrlarni sozlash va tekshirish, ventilyatsiya va sovitish tizimlarini muvozanatlashtirish, ish rejimiga mos ravishda sozlash	Mehnat harakatlari: 1. Asbob-uskunalar yordamida tizimning harorat, bosim va havo oqimi ko'rsatkichlarini o'lchash 2. O'lchov natijalarini me'yoriy qiymatlar bilan taqqoslash 3. Tizimdagi klapan, demfer va regulyatorlarni sozlash orqali havo oqimini muvozanatlashtirish 4. Sovitish tizimining ish rejimini nazorat qilish va zaruratga ko'ra qayta sozlash 5. Avtomatik boshqaruv bloklarining ishini tekshirish va sozlash 6. Sozlash natijalari bo'yicha qaydlar kiritish va tizimning barqaror ishlashini ta'minlash Ko'nikmalar: O'lchov asboblari yordamida tizim parametrlarini aniqlash va baholash Klapan, demfer va regulyatorlarni ish rejimiga mos holatga keltirish Sovitish va ventilyatsiya tizimlarini muvozanatlashtirish Avtomatik boshqaruv elementlarini tekshirish va sozlash Sozlash natijalarini hujjatlashtirish va tizimning barqaror ishlashini ta'minlash Bilimlar: Konditsiyalash va shamollatish tizimlarining ish sikli va asosiy parametrlarini boshqarish tamoyillari Harorat, bosim va havo oqimi o'lchash asboblarning tuzilishi va ishlash prinsipi Tizimlarni muvozanatlashtirish va sozlash ketma-ketligi Sovitish agentlari bilan ishlash qoidalari va xavfsizlik choralari Avtomatik boshqaruv tizimlari funksiyalari va sozlash usullari
		Mehnat harakatlari: 1. Ish joyida mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalarini tekshirish va rioya qilish 2. Xavfli yoki shubhali holatlarni aniqlash va oldini olish choralari ko'rish 3. Qurilma va asbob-uskunalarining xavfsiz ishlashini nazorat qilish 4. Bajarilgan ishlar bo'yicha texnik hujjatlar va hisobotlarni to'ldirish

	A2.03.3- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish, xavfli holatlarning oldini olish bo'yicha choralar ko'rish, bajarilgan ishlar bo'yicha hisobot va texnik hujjatlarni yuritish	5. Favqulodda vaziyatlarda tezkor choralar ko'rish va xabar berish
		6. Ish joyini xavfsiz holatga keltirish va saqlash
		Ko'nikmalar:
		Ish joyida xavfsizlik qoidalariga rioya qilish va nazorat qilish
		Xavfli holatlarni aniqlash va oldini olish choralari amalga oshirish
		Qurilma va asbob-uskunaning xavfsiz ishlashini tekshirish
		Hisobot va texnik hujjatlarni to'ldirish va tartibga solish
		Favqulodda vaziyatlarda tezkor choralarni ko'rish va rahbarga xabar berish
		Bilimlar:
		Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi asosiy qoidalari
		Favqulodda vaziyatlar va ularning oldini olish choralari
		Elektr va mexanik asbob-uskunalarda xavfsizlik talablari
		Ish jarayonini hujjatlashtirish va texnik hisobotlarni yuritish tartibi
		Shaxsiy himoya vositalari va ularni to'g'ri qo'llash qoidalari
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1. Nosozliklarning oldini olish va tizimning me'yoriy ishlashiga javobgar.
		2. Sozlash natijalari va tizim ishining barqarorligiga javobgar
		3. O'z ishini xavfsiz bajarish va guruh xavfsizligi uchun javobgar.
		4. Qurilma va ish joyidagi xavfli holatlarni aniqlash va oldini olish choralari mustaqil amalga oshirish
		5. Bajarilgan ishlar bo'yicha texnik hujjat va hisobotlarni to'liq va to'g'ri yuritish
Texnik va/yoki texnologik talab	1.O'lchash asboblari: harorat, bosim, havo oqimi sensorlari va o'lchagichlar 2.Sozlash va texnik xizmat vositalari: klapan, demfer, regulyatorlarni sozlash va tizim qismlarini tozalash, moylash, mayda ehtiyot qismlarni almashtirish uchun kalit, tornavida, moylash asboblari; 3.Ventilyatsiya va sovitish tizimi qurilmalari: kanallar, sovutish va kondensat drenaj tizimlari; 4.Avtomatik boshqaruv va signalizatsiya bloklari: termostat, boshqaruv panellari, favqulodda to'xtatish tizimlari;	

	5.Shaxsiy himoya vositalari: qo'lqop, ko'zoynak, xavfsizlik kiyimi, nafas olish vositalari Texnik hujjatlar va hisobot yuritish vositalari: kompyuter, elektron va qog'oz shakllar.
--	---

Kasbning nomi:	Sovutish qurilmalarini ta'mirlash bo'yicha chilangar
Mashg'ulot nomining kodi:	71270
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji) ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	- Ishga qabul qilinishi uchun nomzod kamida 18 yoshga to'lgan, jinsiga qarab (ayol/erkak) kasb faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim; - Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; - Jismonan sog'lom va stressga chidamli bo'lishi kerak, uzoq vaqt ishlash qobiliyatiga ega bo'lish; - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevis, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish Ko'nikmalarlariga ega bo'lish; - Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; - Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	o'rta maxsus ta'lim umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba
Kasbiy standartlar reestrida mavjudligi:	-
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	2-5 razryadli Sovutish qurilmalarini ta'mirlash bo'yicha chilangar

Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:		TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
		3	Sovutish qurilmasi mashinisti
		5	Elektrotexnik qurilmalar bo'yicha texnik
		4	Rekuperatorlar va sovitish tizimlariga xizmat ko'rsatish bo'yicha apparatchi
Mehnat funksiyalarining tavsifi			
Kodi va nomi	Mehnat vazifalari		
B1.3- Sovutish qurilmalarining diagnostikasi va ta'mirlash ishlarini amalga oshirish	B1.01.3- Sovutish qurilmalarining ishlash holatini kuzatish, texnik vositalar yordamida diagnostika o'tkazish, nosozlik belgilarini aniqlash va ularning sabablarini tahlil qilish orqali qurilmaning umumiy texnik holatini baholash	O'qitish natijalari	
		Mehnat harakatlari:	
		1.Sovutish qurilmasining ish holatini vizual va asbobiy tekshirish	
		2.Diagnostika asboblari yordamida parametrlarni o'lchash	
		3.Nosozlik belgilarini aniqlash va ularni tizimli tarzda qayd etish	
		4.Nosozlik sabablarini tahlil qilish va ta'minlash choralarini belgilash	
		5.Qurilmaning umumiy texnik holatini baholash va hisobot tayyorlash	
		Ko'nikmalar:	
		Qurilmaning ish holatini vizual va asbobiy tekshirish	
		Diagnostika asboblari yordamida parametrlarni o'lchash va tahlil qilish	
		Nosozlik belgilarini aniqlash va ularni tizimli qayd etish	
		Nosozlik sabablarini aniqlash va tuzatish choralari bo'yicha tavsiyalar berish	
		Qurilmaning umumiy texnik holatini baholash va hisobot tayyorlash	
		Bilimlar:	
		Sovutish qurilmalari va tizimlarining ish prinsiplari va asosiy qismlari	
		Harorat, bosim va sovutish agenti oqimi kabi parametrlarni o'lchash usullari	
		Nosozlik belgilarini aniqlash va ularni tahlil qilish usullari	
		Elektr va mexanik qismlar bilan ishlash xavfsizligi qoidalari	
		Texnik hujjatlarni yuritish va hisobot tayyorlash tartibi	
			Mehnat harakatlari:
		1. Aniqlangan nosozliklarni aniqlash va tahlil qilish.	
		2. Zarur ehtiyot qismlarni tanlash va almashtirish.	
		3. Mexanik va elektr qismlarni ta'mirlash.	
		4. Tizimni yig'ish va ish rejimiga mos ravishda sozlash.	
		5. Ishga tushirishdan oldin sinovlarni o'tkazish va natijalarni tekshirish.	

	B1.02.3- Aniqlangan nosozliklarni bartaraf etish, kerakli ehtiyot qismlarni almashtirish yoki ta'mirlash, tizimni yig'ish va sozlash, ishga tushirishdan oldin sinovdan o'tkazish hamda bajarilgan ishlarni texnik hujjatlar asosida rasmiylashtirish.	6. Bajarilgan ishlar bo'yicha texnik hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish. Ko'nikmalar: Aniqlangan nosozliklarni tahlil qilish va bartaraf etish Ehtiyot qismlarni tanlash va almashtirish Mexanik va elektr qismlarni ta'mirlash va tizimni yig'ish Tizimni ish rejimiga mos ravishda sozlash va ishga tushirishdan oldin sinovdan o'tkazish Bajarilgan ishlarni texnik hujjatlar asosida rasmiylashtirish Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalariga rioya qilish Bilimlar: Sovutish qurilmalari va tizimlarining ishlash prinsiplari va asosiy qismlari Mexanik va elektr qismlarni ta'mirlash va sozlash texnologiyalari Turli ehtiyot qismlarning turlari, ishlatilishi va almashtirish usullari Ishga tushirish va sinovdan o'tkazish tartibi Texnik hujjatlarni yuritish va rasmiylashtirish qoidalar Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi qoidalar
	Mas'uliyat va mustaqillik:	1.Tizim ishini nazorat qilish va nosozliklarni aniqlash uchun javobgar 2.Nosozliklarni bartaraf etish va ehtiyot qismlarni almashtirish uchun javobgar 3.Tizimni yig'ish, sozlash va ishga tushirish uchun javobgar 4.Xavfsizlik va mehnat muhofazasi uchun javobgar 5.Texnik hujjatlar va hisobotlarni yuritish uchun javobgar
B2.3- Sovutish tizimlariga texnik xizmat ko'rsatish, ularni sozlash va ekspluatatsiya xavfsizligini ta'minlash faoliyati	B2.01.3- Sovutish tizimlarining doimiy ishlashini ta'minlash maqsadida ularni tozalash, yog'lash, tekshirish va zarur sozlash ishlarini amalga oshirish, eskirgan yoki nosoz qismlarni aniqlash va ularni almashtirish, ishga tayyorlash va sinovdan o'tkazish.	Mehnat harakatlari: 1. Sovutish tizimlarini vizual tekshirish va ish holatini baholash 2. Tizim qismlarini tozalash va moylash 3. Ish rejimiga mos ravishda tizim parametrlarini sozlash 4. Eskirgan yoki nosoz qismlarni aniqlash va ularni almashtirish 5. Tizimni ishga tayyorlash va sinovdan o'tkazish 6. Bajarilgan ishlar bo'yicha texnik hujjatlarni tayyorlash va rasmiylashtirish Ko'nikmalar: Sovutish tizimlarini muntazam tozalash va moylash Ish rejimiga mos ravishda tizim parametrlarini sozlash Eskirgan yoki nosoz qismlarni aniqlash va almashtirish Tizimni ishga tayyorlash va sinovdan o'tkazish jarayonini bajarish

		Texnik xizmat ko'rsatish jarayonida ish sifati va xavfsizlikni ta'minlash
		Bilimlar:
		Sovutish tizimlarining uzoq muddatli ishlashini ta'minlash usullari
		Tizim qismlarini muntazam texnik xizmat ko'rsatish tartibi
		Yog'lash materiallari va ishlatiladigan moylarning turlari hamda qo'llanish qoidalari
		Tizimning ishga tayyorlash va sinovdan o'tkazish standartlari
		Eskirgan yoki nosoz qismlarni aniqlash metodikasi va almashtirish tartibi
	B2.02.3- Sovutish tizimlarining xavfsiz ishlashiga doir texnika xavfsizligi va sanitariya- gigiyena talablariga rioya etish, favqulodda holatlarning oldini olish choralari ko'rish, himoya vositalaridan foydalanish va xavfsizlik bo'yicha nazorat ishlarini olib borish	Mehnat harakatlari:
		1. Ish joyida texnika xavfsizligi va sanitariya-gigiyena qoidalariga rioya qilishni ta'minlash
		2. Favqulodda holatlar va xavfli vaziyatlarni aniqlash va oldini olish choralari ko'rish
		3. Shaxsiy himoya vositalarini to'g'ri tanlash va ulardan foydalanishni nazorat qilish
		4. Sovutish tizimlari ishlash jarayonida xavfsizlik bo'yicha nazorat ishlarini olib borish
		5. Xavfsizlik bo'yicha kuzatuv va nazorat natijalarini qayd etish va zarur choralarni belgilash
		Ko'nikmalar:
		Ish joyida texnika xavfsizligi va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish
		Favqulodda holatlarni aniqlash va oldini olish choralari ko'rish
		Shaxsiy himoya vositalaridan to'g'ri foydalanish
		Xavfsizlik bo'yicha nazorat ishlarini olib borish
		Kuzatuv va nazorat natijalarini qayd etish, hisobot tayyorlash
		Bilimlar:
		Sovutish tizimlarida xavfsizlik va sanitariya-gigiyena talablarining asosiy qoidalari
		Favqulodda holatlar va xavfli vaziyatlarni aniqlash usullari va ularni oldini olish choralari
		Shaxsiy himoya vositalarining turlari, ishlatilishi va ulardan to'g'ri foydalanish tartibi
		Sovutish tizimlari xavfsizlik nazorati va monitoring metodikalari
		Xavfsizlik bo'yicha kuzatuv va nazorat natijalarini qayd etish va hisobot yuritish qoidalari
	Mas'uliyat mustaqillik: va	1. Xavfsizlik va sanitariya-gigiyena talablariga rioya qilish uchun javobgar
		2. Favqulodda holatlarni oldini olish choralari ko'rish uchun javobgar

		3. Shaxsiy himoya vositalaridan foydalanishni ta'minlash uchun javobgar
		4. Xavfsizlik bo'yicha nazorat ishlarini olib borish uchun javobgar
		5. Kuzatuv va nazorat natijalarini qayd etish va hisobot yuritish uchun javobgar
	Texnik va/yoki texnologik talab	1. Konditsioner va shamollatish tizimlarini ta'mirlash va sozlash uchun mo'ljallangan o'lchov asboblari (manometr, termometr, multimetr, ampermetr); 2. Quvurlarni yig'ish, ulash va sızdırmasligini tekshirish uchun qo'llaniladigan maxsus mexanik va elektr asboblari; 3. Sovutgich (freon) bilan ishlashda foydalaniladigan vakuum nasoslari va gaz to'ldirish moslamalari; 4. Metall qismlarni kesish, bukish, payvandlash va biriktirish uchun zamonaviy texnik jihozlar; 5. Elektr va avtomatik boshqaruv tizimlarini diagnostika qilish uchun servis qurilmalari va test modullari; 6. Mehnat xavfsizligi va texnika xavfsizligi vositalari (himoya qo'lqoplari, ko'zoynaklar, gaz niqoblari va bosh kiyimlar).

Kasbning nomi:	Maishiy elektr jihozlarini ta'mirlovchi elektromexanik
Mashg'ulot nomining kodi:	74123
TMR bo'yicha malaka darajasi:	3
Malakani baholashga qo'yiladigan talablar:	Tavsiya etiladi
Amaliy tajriba (ish staji) ga qo'yilgan talablar:	Ish staji talab etilmaydi
Layoqatiga va shaxsiy kompetensiyalarga qo'yilgan talablar:	- Ishga qabul qilinishi uchun nomzod kamida 18 yoshga to'lgan, jinsiga qarab (ayol/erkak) kasb faoliyatini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim; - Ishga kirishda dastlabki tibbiy ko'rikdan o'tgan bo'lishi; - Jismonan sog'lom va stressga chidamli bo'lishi kerak, uzoq vaqt ishlash qobiliyatiga ega bo'lish; - Kasbiy faoliyat doirasida vujudga keladigan turli masalalar yechimini topish usullarini tanlay olish; - Rahbar tomonidan belgilangan maqsadga erishish uchun jamoada ishlay olish; - O'zining kasbiy malakasini va shaxsiy kamolotini takomillashtirib borish; - Jamoada va ma'lum vazifani bajarishga yo'naltirilgan guruhda ishlash, hamkasblar, rahbarlar va mijozlar bilan samimiy, xushmuomala hamda samarali muloqot qilish; - Ta'lim olgan tilida fikrini og'zaki va yozma ravishda ravon bayon qilish; - Umuminsoniy fazilatlarga ega bo'lish, o'z millatini va Vatanini sevis, u bilan faxrlanish, milliy urf-odatlar, qadriyatlarni hurmat qilish; - Professional vazifalarni samarali bajarish uchun zarur bo'ladigan ma'lumotlarni qidirish; - Kasbiy faoliyatida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash; - Kasbga doir hujjatlar bilan ishlash; - Kasbiy faoliyatda xavfsizlik texnikasi va mehnat muhofazasi qoidalariga amal qilish Ko'nikmalarlariga ega bo'lish; - Sanoat va nosanoat tashkilotlarda vujudga keladigan chiqindilarni atrof-muhitga zarar yetkazmaslik choralarini ko'rish va utilizatsiya qilish; - Sohaga oid ekologik madaniyatga rioya qilgan holda faoliyat olib borish.
Ta'lim darajasiga qo'yilgan talablar:	boshlang'ich professional ta'lim
Norasmiy va informal ta'lim bilan bog'liqligi:	o'rta maxsus ta'lim umumiy o'rta ta'lim + norasmiy (informal) ta'lim yoki amaliy tajriba

Kasbiy standartlar reestrida mavjudligi:	-	
Kasbning boshqa mumkin bo'lgan nomlari:	3-6 razryadli Maishiy elektr jihozlarini ta'mirlovchi elektromexanik	
Boshqa kasblar bilan aloqadorligi:	TMR bo'yicha malaka darajasi:	Kasbning nomi:
	3	Sovutish qurilmasi mashinisti
